

---

## "Biznes sayohat"

"Yoshlar oyligi" hamda "Yosh tadbirkorlar" kunini keng nishonlash maqsadida tuzilgan reja jadval asosida "Tadbirkorlar va yoshlar" mavzusida yirik korxonalar va texnoparklarga biznes sayohatlarni tashkil etish belgilangan. Ushbu belgilangan reja jadvalga asosan "Yoshlar-kelajagimiz" jamg'armasi Qo'shtepa tuman bo'limi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qo'shtepa tuman Kengashi bilan birgalikda tumanimizdagi san texnika jihozlari (vanna) ishlab chiqaruvchi "FIBERGLASS" ma'suliyati cheklangan jamiyatiga 20 nafar tadbirkorlikka qiziquvchi talabalar bilan birgalikda "Biznes sayohat" tashkil etildi.







**Ushbu sayohat davomida “FIBERGLASS” ma’suliyati cheklangan jamiyati ish yurituvchisi talabalarni bevosita ishlab chiqarish jarayonlari, mahsulotni to’liq xolatga keltirish uchun sarflanayotgan mehnat xamda san texnika jixozlarni tayyorlanishi to’g’risida to’liq tushunchalar berdi.**

2019-06-19 11:30:40